

**JINOYAT PROTSESSIDA DASTLABKI ESHITUV INSTITUTINING
AHAMIYATI VA ZARURATI**

*Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti
yurisprudensiya yo'nalishi 307-guruh talabasi
Baltabayev Mansurbek Kamiljon o'g'li*

Annotatsiya. Ushbu maqolada dastlabki eshituv institutining joriy etilish zarurati hamda jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituv tartibi to'g'risida ma'lumot berilgan.

Аннотация. В данной статье представлена информация о необходимости введения института предварительного слушания и порядка предварительного слушания по уголовному делу.

Annotation. This article provides information about the need to introduce the preliminary hearing institution and the procedure for the preliminary hearing in the criminal case.

Kalit so'zlar. Dastlabki eshituv, dastlabki eshituv asoslari, dastlabki eshituv o'tkazish to'g'risidagi ajrim, dastlabki eshituvni tayinlash, dastlabki eshituv ishtirokchilari.

Ключевые слова. Предварительное слушание, основания предварительного слушания, определение о проведении предварительного слушания, назначение предварительного слушания, участники предварительного слушания.

Keywords. Preliminary hearing, grounds of preliminary hearing, ruling on conducting preliminary hearing, appointment of preliminary hearing, participants of preliminary hearing.

Yurtimizda fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilish maqsadida xalqaro andozalarga muvofiq ravishda qonunchilik asoslari takomillashtirib borilmoqda. Qator mamlakatlarning muvaffaqiyatli tajribalariga asoslangan holda amaliyotga tatbiq etilayotgan normalar bugungi kunda ijtimoiy munosabatlar tartibga solishga munosib hissa qo'shmoqda.

Davlatimiz rahbari 2018 –yil 14 –maydagi “Jinoyat va jinoyat –protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora –tadbirlari to'g'risida”gi qarorda nazarda tutilgan ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida jinoiy –protsessual qonunchilikka 2021 –yil fevral oyidan dastlabki eshituv instituti joriy qilindi.

Dastlabki eshituvning asosiy maqsadi shundan iboratki, sud majlisida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan protsessual qonun buzilishi holatlarini oldini olish hamda jinoyat ishini ochiq sud majlisida to'la –to'kis ko'rish uchun tayyorlash.

Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituv tartibi Jinoyat –protsessual kodeksining 49¹-bobida nazarda tutilgan. Unga muvofiq, dastlabki eshituv quyidagilar uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda o'tkaziladi:

- 1) jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni to'xtatib turish;
- 2) jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni tugatish;
- 3) jinoyat ishini ayblov dalolatnomasini, ayblov xulosasini yoki tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash to'g'risidagi qarorni tasdiqlagan prokurorga yuborish;

- 4) Jinoyat –protsessual kodeksida nazarda tutilgan hollarda jinoyat ishlarini birlashtirish;

- 5) nomaqbul dalillarni ishdan chiqarib tashlash to'g'risida taraflardan birining iltimosi mavjud bo'lsa, ushbu dalillarni chiqarib tashlash.

Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituv o'tkazish to'g'risidagi ajrimda ajrim chiqarilgan vaqt va joy; sudyaning lavozimi va familiyasi; ayblanuvchining familiyasi, ismi, otasining ismi va Jinoyat kodeksining unga nisbatan ayblov qo'yilayotgan moddasi; iltimosnoma kiritgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi va protsessual maqomi; dastlabki eshituvni o'tkazish uchun asoslar; dastlabki eshituv ishtirokchilari; dastlabki eshituv o'tkaziladigan joy va vaqt ko'rsatiladi.

Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituv sudya tomonidan jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituvni tayinlash to'g'risidagi ajrim chiqarilgan paytdan e'tiboran besh sutkadan kechiktirmay boshlanishi kerak. Dastlabki eshituvni o'tkazish davomiyligi dastlabki eshituv boshlangan kundan e'tiboran o'n sutkadan oshmasligi kerak.

Dastlabki eshituv sudya tomonidan yopiq sud majlisida yakka tartibda, taraflar ishtirokida o'tkaziladi. Taraflarni sud majlisiga chaqirish to'g'risidagi bildirish dastlabki eshituv o'tkaziladigan kunga qadar kamida uch sutka oldin yuborilgan bo'lishi kerak. Sud majlisida ayblanuvchi, uning himoyachisi va davlat ayblovchisi ishtirok etishi shart. O'z vaqtida xabardor qilingan jabrlanuvchining va uning vakilining, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgarining hamda ular vakillarining sud majlisiga kelmaganligi dastlabki eshituvni o'tkazish uchun monelik qilmaydi.

Agar jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituvni o'tkazish chog'ida ayblanuvchining yashiringanligi aniqlansa, sudya ushbu ayblanuvchiga nisbatan ish yuritishni to'xtatib turish va unga nisbatan qidiruv e'lon qilish to'g'risida ajrim chiqaradi. Bir vaqtning o'zida ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasini o'zgartirish masalasi hal etiladi. Ayblanuvchining sud majlisida ishtirok etishini istisno etadigan og'ir va davomli kasallikka chalinganligi sud-tibbiy ekspertiza xulosasi bilan tasdiqlangan taqdirda, sudya ishni yuritishni ayblanuvchi sog'ayguniga qadar to'xtatib turish to'g'risida ajrim chiqaradi. Jinoyat ishi bo'yicha ish yuritish uning to'xtatib turilishiga sabab bo'lgan holatlar bartaraf etilganidan keyin qayta tiklanadi. Jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni qayta tiklash to'g'risida sudya ajrim chiqaradi.

Qonunchiligimizda dastlabki eshituv institutining amaliyotga tatbiq etilishi fuqarolarning shikoyat keltirish bilan bog'liq huquqlarini ham ta'minlanishiga xizmat qiladi. Aynan dastlabki eshituv tartibining mavjudligi natijasida ayblov organidan jinoyat ishini sudda ko'rish uchun jiddiy tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Ahamiyatlisi shundaki, dastlabki eshituv jarayonda mavjud nomaqbul dalillarning chiqarilishi hamda kelgusida ulardan ayblov uchun asos sifatida foydalanmaslikni, shuningdek, sud jarayonida oshkoralikning ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi.
2. "Jinoyat va jinoyat –protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora –tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori. 14.05.2018
3. Yuz.uz

